

Rangtasvir Mashg`Ulotlarida Tabiiy Ranglarni Hosil Qilish Va Grizayl Ishlashda Ulardan Foydalanish Metodlari

Olimov Anvarjon Mamirovich¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada rangtasvir mashg`ulotlarida grizaylda ishslash texnologiyasi, akvarel bo`yoqlaridan emas tabiiy ko`rinishdagi ranglardan foydalanib tasvir xosil qilish va ushbu metodlar haqida qarashlar yoritilgan.

Kalit so`zlar: grizayl, akvarel, rang, tus, tarshin qog`oz, jilka chotkalar, qaxva, choy, suv.

O`zbekiston Respublikasida bugungi kunga kelib ilm-fan, ta`lim va yana ko`plab soxalarda ijobiy yutuqlarga erishilmoxqda. Yetishib chiqayotgan ilmlı yoshlarimiz ko`plab ixtisoslashtirilgan maxsus maktablarda ta`lim olishyapti. Bunga Prezident, Al Xorazmiy, Beruniy va yana ko`plab maktablarni misol qilishimiz mumkin. Yoshlarimiz bundan tashqari o`z istedodlarini rivojlantirishlari uchun Respublikamizning barcha joylarida yangidan qurib bitqazilgan bolalar musiqa va san`at maktablarida o`qishib ustozlaridan bilim olib kelishyapti. Ushbu maxsus san`at maktablarida o`quvchilar o`zlarini qiziqqan yo`nalishlar bo`yicha ta`lim olishyapti.

San`atning rangtasvir turida o`qib, bilimlar olib ranglar yordamida yurtimizning go`zal manzaralari, mevalari, samimi odamlari, shahar va qishloq ko`chalarini tasvirlab tomoshabinlarga estetik zavq ulashuvchi mo`yqalam ustalari, yosh ijodkorlar talaygina. Dunyoni go`zallik qutqaradi degan jumla bor, bu go`zallik meni o`ylashimcha rangtasvir asarlari ortida yashiringandek va unga yo`l esa qalamtasvirdan keyingi bosqichda turuvchi Grizayl orqali boriladi. Grizayl- rangtasvirga kiradigan eshik hisoblanadi.

Inson umrining har lahzasida uchraydigan rang insonlarning ma`naviyatini shakllantirishda muhim o`rin tutadi. Chunki, rang ruhiyatga har daqiqada ijobiy yoki salbiy ta`sir etishi mumkin. Yorug`lik bor joyda rang bo`ladi. Chunonchi, kechqurun uyingizda chiroq o`chib qoldi, deylik hamma joy qop-qora zulmat bo`lib ko`rinadi. Siz siqilasiz, tushkunlikka tushasiz, insonda mavhumlik paydo bo`ladi. Ko`z qorachig`i kattalashadi, yurak urishi o`zgaradi, bu holat kishilarning sog`lig`iga salbiy ta`sir etadi. Grizayl bitta rang yoki bir tus bilan ishlangan ish turkumiga kirib, bunda shaklning umumiyo` ko`rinishi, soya-yorug` qonunytatlari bir rang ko`rinishida aks etadi. Grizayl rang va qalamtasvir orasidagi ko`prik kabidur.

Bizga ma`lumki grizayl ishslashda bo`yoqlardan foydalanib kelinadi. Grizaylda ishlangan ko`plab tasvirlar asosan jigarrangda ishlanib boshqa turdag'i ranglarga e'tibor kam qaratilgan. Lekin shunday bo`lsada boshqa ranglardan ham erkin foydalanish mumkin. Bunda bitta rang tanlab olinib, bajarilayotgan ish jarayonida usha rang to`qligi va ochligi uyg`unlashgan holatda ish bajariladi. Masalan ranglardan birini yaniy yashilni tanlaymiz. Tanlagan rangimizni (Akvarel) suv orqali qog`ozga surtar ekanmiz, naturadagi tasvirni soya yorug`ligiga qarab ko`p yoki kamroq miqdorda aralashtiramiz. Masalan naturada yoki tasvirda to`qlikni chiqarmoqchi bo`linsa suv miqdorini kamaytirib rangni ko`paytiriladi. Foiz hisobida suv 20%, rang esa 80% ni tashkil etadi. Aksincha, agar tasvirdagi yorug`likni va yarim soyani berish uchun esa tanlangan ranglardan kamroq, suvdan esa ko`proq qo`shiladi.

Grizaylda ishslash bu faqat akvarel yoki guash bo`yoqlaridan foydalanib ishslash degani emas. Bundan tashqari boshqa tabiiy usullardan foydalanish ham mumkin. Masalan, damlangan acchiq choy

¹ Qo`qon Universiteti, Ta`lim kafedrasи o`qituvchisi



yoki kofelar orqali ham ishlash mumkin. Bunda bitta piyolaga choy damlanadi va ushbu damlangan choy bir kun saqlanadi. Shunda choy rangi yana ham to`q tusga kiradi. Shundan kegin ushbu choy rangidan foydalanib, grizayl ishlash mumkin bo`ladi. Akvarel bo`yoqlari va choy rangidan foydalanib ishlangan grizaylda farq mavjud. Qora choy bilan ishlangan tasvirlar bir-muncha sifatli va mayinroq ko`rinishda bo`ladi. Grizaylda choydan foydalanmoqchi bo`lganlar bиринчи, qora choydan piyolaga 2-3 osh qoshiqdan solib, to`q rang xosil qilib olishlari lozim. Shunda rangdi to`qdan ochlikka keltirish imkonи osonroq bo`ladi. Tasvirlanayotgan narsa och to`qligiga qarab tayyorlangan to`q rangdagi achiq choga suv qo`shish bilan rang xolatini belgilash mumkin bo`ladi. Xuddi shunday xolatda qaxvani ham misol keltirish mumkin. Grizayl ishlashda noodatiy usullardan foydalanib yangicha ko`rinishdagi tasvirlarni xosil qilish ijod axli uchun juda muximdir. Qaxva bilan ishlash metodi xuddi choy kabitidir. Qaxvadan rang tayyorlanayotganida qaxva solingen idishga shakar qo`shib yubormaslik lozim. Qoshib yuborilgan shakar grizayl ishiga salbiy xolatlarni olib keladi. Misol: Shakar, oqqand yoki novvot solib ishlangan grizayl ishi vaqt o`tishi bilan xasharotlarni o`ziga jalb qiladi va xasharotlar rang tarkibida shirinlik mavjudligini bilib, uni yalab qo`yadi. Shunda pashsha, chivin yoki boshqa turdagи xasharotlar yalagan rang yuzasi buziladi va grizayl yoki akvarelda ishlangan ishlар sifatiga ta`sir qiladi. Agar o`quvchilar yoki ijodkorlar tomonidan shu kabi xolatlarda ishlари bo`lsa uni o`rab yoki oynali ramkalarga solib qo`yishlik tavfsiya etiladi. Tabiiy usuldagi tayyorlangan bu ikki grizayl ishlари qisman ko`rinishi jixatidan bir-biridan farq qiladi.

Grizaylda ishlash ko`p xolatlarda qog`ozlarda bajariladi. Bugungi kunda sotuvda bozor rastalarida va do`konlarda qog`ozning koplab turlari mavjud. Grizaylda ish bajarmoqchi bo`lganlar uchun qog`oz tanlash muximdir. Grizaylda ishhamoqchi bo`lgan o`quvchilar uchun ikki qog`oz tavsiya etiladi. Bular och jigarrang tusdagi va tarshin qog`ozlari bo`lib, har ikkala qog`ozga bajarilgan grizayl ishlari sifatli chiqadi. Och jigarrang tusdagi qog`oz tarshinga nisbatan bir-muncha yupqa bo`lsada lekin bajarilayotgan ishni 40-50% ga sifatli qilib ko`rsatib berish xususiyatiga ega. Agar grizayl tasvir ushbu qog`ozga jigarrangda bajarilsa tasvir ko`rinishiga va ish bajarilishida bir-qancha yengilliklarni beradi. Oq tarshin qog`ozi ham sifatli bo`lib rangtasvir ishlari bilan bir qatorda grizayl ishlariga ham tavfsiya etiladi. Boshqa qog`ozlarga qaraganda ushbu qog`oz qalin, sirti dag`al bo`lib yangi rangtasvir o`rganayotgan o`quvchilarga ham qiyinchilik tug`dirmaydi. Grizaylda tabiat manzarasi, hususan daraxtlar ularning barglarini tasvirlashda yassi jilka chotkalardan foydalanish kerak. Sababi, ushbu ko`rinishdagi chotkalar daraxt shox-shabbasi, barglarini mayin huddiki, aslidek bo`lib ko`rinishida muxim ishni bajaradi. Shuning ushun cho`tkalar ko`rinishi va ish bajarish vazifalariga qarab turlicha ko`rinishda bo`ladi. Bu kabi ish qurollari qanchalik ko`p bo`lsa shunchalik ish sifati va yaxshi chiqadi. Yassi jilka cho`tlari barcha ijodkorlar mo`yqalamlari qatoridan joy olishligi muhim. Vaqt kelganida bu jilka cho`tkalarning ham o`z qiladigan vazifalari bordir. Farqli ravishda grizayl ishslash uchun yuqorida keltirilgan tabiiy xolatda rang tayyorlashdan tashqari boshqacha usullar ham mavjud bo`lib, ijodkor uchun tanlash huquqi bor. Masalan; grizaylni yashil rang uchun daraxt (tut) bargini yanchib tabbiy rangini olish mumkin. Boshqa daraxt barglariga qaraganda tut barglari birmuncha qalin va sersuvligi bois aynan shu daraxt barglaridan rang olish maqsadga muvofiqdir. Yoki daraxt po`sloqlarini qaynatib ham tabiiy usulda rang olish mumkin. Bunday usullarda tayyorlangan ranglar inson salomatligi uchun xech qanday zararli tomonlari kuzatilmaydi. Akvarel yoki guash bo`yoqlaridan grizayl ishslashni o`rniga tabiiy usullardan foydalanib rang hosil qilishni yo`lga qo`yish kerak.

Grizayl texnikasida soya, yarimsoya, reflekslarni birdaniga kerakli tusda mos bo`yoqlar bilan qoplash, (iloji boricha bo`yoqni qayta-qayta berishni takrorlamasdan) bo`yoq surtmalarini shakl yo`nalishi bo`yicha harakatlantirish kerak. Masalan, silindrsimon shaklga ega bo`lgan narsaga turli tasodifiy yo`nalishda surtmalar berilsa, ushbu shaklning aylanaligini ko`rsatish mushkuldir. Grizayl ishslashda ko`proq jigarrang, qora, ultramarin va oq bo`yoqlardan foydalangan ma'qul. Rangtasvir - shaklning to`g`ri qurilishi tus va rang yechimining birligidadir. Kimki grizayl texnikasida odam tasvirini maromiga yetkazib bajara olsa, rangtasvirni ham muvaffaqiyatli chiqishiga zamin yaratgan bo`ladi. O`quv jarayonini bochqichlarga ajratish bilan tus nisbatlarini o`rganish muammolarning yechimini topish mumkin: rangtasvir mashg`ulotlaridagi bиринчи bosqich - bu kartinadagi tuslar nisbatini aniqlash va ishlov berish, ya`ni berilgan vazifani “grizayl” texnikasida bajarish hisoblanadi. Shuning



uchun o`quv jarayonida talabalarga grizayl texnikasida ishlashni o`rgatish maqsadida bu mashg`ulotlar o`quv dasturlariga kiritilib, bu vazifalarni bajarish talabalar uchun shart qilib belgilab qo`yilgan.

Grizayl (Grisaille) - lotincha “griz” ya`ni kulrang deb tarjima qilinsa nega yuqoridagi usullarda kulrangdan boshqa ranglarda ham ishlashni grizayl deb atalganligi biroz noqulay. Agar kengroq o`ylab ko`rilsa aynan kulrangni tanlanishi bu bejizga emas, chunki qalamtasvirda ishlash jarayonida talaba yoki o`quvchi faqat grafit qalamda ish olib boradi va ular qog`oz sathida kulrang va qoramtil tusni ko`radi xolos. Grizayl qalamtasvir bilan rangtasvir o`rtasidagi ko`prik hisoblanib, qalamtasvirning tugashi va rangtasvirning boshlanishi hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa shuki, amaliy mashg`ulotlarda grizaylda tasvir ishlashda tabiiy narsalar ranglaridan foydalanish rang xosil qilish, uni amaliyatda qo`llash usullari ko`rsatib o`tilgan. O`quvchilarining rangtasvir mashg`ulotlarida bitta rang yoki tus bilan ishlash texnologiyasini qayta-qayta mashq qilib borishlari maqsadga muvofiqdir. Shunda o`quvchining ranglar bilan ishlash mahorati charxlanib boradi. Grizaylda o`quvchi yoki talabaga akvarel bo`yog`ida ishlashning ilk ko`nikmalarini shakillanishiga yordam beradi va mo`yqalam va akvarel bo`yog`i bilan tanishtiradi. Amaliy ishlar jarayonida bir-qancha grizayl usullardan foydalanib bajarilgan ishlar o`quvchiga yangi bilim va ko`nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi. Kelajakda o`quvchi yoshlarimiz ranglar orqali asrlarga tatiflik tasviriy san`at asarlarining paydo bo`lishiga tamal toshini qo`yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Abdirasilov, N.Tolipov, N.Oripov, Rangtasvir, O`quv qo`llanma, Toshkent - «O`zbekiston» - 2006.
2. T.Oltmishev, Tasviri san`atda grizaylda ishlash metodi, Ilmiy maqola, (SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7)
3. S.S.Bulatov, Rangshunoslik, darslik, O`zbekiston faylasuflar milliy jamiyatni nashriyoti Toshkent- 2009
4. T.Qo`ziyev, A.Egamov, T.Qanoatov, A.Nurqobilov. Rangtasvir, Darslik. «SAN`AT» JURNALI NASHRIYOTI TOSHKENT- 2003

